XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI SAMARQAND SHAHAR KENGASHI QARORI

2023 - yil 4 - may VI-84-74-7-107-K/23 Samarqand shahar hokimligi

Shahardagi qabristonlarni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 4-, 6-, va 10-moddalariga muvofiq, Samarqand shahar hokimligining geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha komissiyasining shahardagi nomsiz 1 ta qabristonni nomlash to‘g‘risida 2023-yil 6-yanvardagi (01-33/01-sonli) yig‘ilish bayoni hamda Kadastr agentligining 2023-yil 13-martdagi (08-101815-sonli) ekspertiza xulosasini inobatga olib, xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Samarqand shahar Do‘stlik mahalla fuqarolar yig‘inidagi nomsiz qabristonga **Chinorzor** nomi berilsin.

2. Shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi **(Qodirov)**, shahar statistika bo‘limi **(Ulashev)**, Kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi Samarqand shahar filiali **(Abjalov)**, mazkur qarorning 1-bandida ko‘rsatilgan qabriston nomini belgilangan tartibda statistik hisobotlarda aks ettirilishini va ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritilishi ta’minlasin.

3. Kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi Samarqand shahar filiali **(Abjalov)**, shahar Obodonlshtirish boshqarmasi **(Bobonazarov)** bilan birgalikda nom berilgan qabristonga belgilangan tartibda zamonaviy talablar asosida peshlavha va ko‘rsatkich belgilarini o‘rnatish ta’minlasin.

4. Shahar hokimligi axborot xizmati **(Po‘latov)** mazkur qarorni ommaviy axborot vositalari orqali keng jamoatchilikka yetkazishni ta’minlasin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining “Qonuniylikni ta’minlash, sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Bababekova) va shahar hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (N.Alkarov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **F.Umarov**